

TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING IQTISODIY MAZMUNI VA AHAMIYATI

Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

ORCID: 0009-0001-7526-5316

abdurasulovxumoyun08@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiy mazmuni va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish va savdo jarayonining uzluksizligini ta'minlash, xarajatlarni optimallashtirish va bozor talablariga tezkor javob berish uchun muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada zaxiralarni boshqarishning samarali usullari va ularning moliyaviy natijalarga ta'siri haqida fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: tovar-moddiy zaxiralar, iqtisodiy mazmun, zaxira boshqaruvi, ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy samaradorlik

Annotation: The article analyzes the economic essence of material and commodity reserves and their importance in enterprise operations. Material reserves are considered a crucial tool for ensuring the continuity of production and trade processes, optimizing costs, and responding promptly to market demand. The article also discusses effective methods of inventory management and their impact on financial outcomes.

Key words: material and commodity reserves, economic essence, inventory management, production process, financial efficiency

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlashda "O'zbekiston-2030" Strategiyasida bir qator ustivor vazifalar belgilab berilgan. Unda 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilog'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, sanoatning "drayver" soxalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishlga solish, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga etkazish va 2,5 million ish o'rinlarini yaratish, yirik korxonalar tomonidan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperasiya aloqalarini kengaytirish, har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish, to'qimachilikda ip kalavani qayta ishlash 100 foizga etkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna su'niy va aralash tolani ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish hamda qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarni ishlab

chiqishni kengaytirish kabilardan iborat¹.

Ushbu belgilangan ustivor vazifalardan ko‘rinib turibdiki, sanoatda, qishloq xo‘jaligi va hizmatlar ko‘rsatish sohalarida ishlab chiqarishni yanada kengaytirishda ulardagi mavjud tovar-moddiy zaxiralar, materiallar va xomashyo miqdorini oshirish hamda ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Biz tadqiqot davomida tovar-moddiy zaxiralar tushunchasi, ularning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, xamda ularni turkumlanishi keng o‘rganildi.

Odatda tovar-moddiy zaxiralar tushunchasi kengroq bo‘lib, uning tarkibiga ta‘minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Tovar-moddiy zaxiralarga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va respublikamizdagi buxgalteriya hisobiga oid me‘yoriy hujjatlarda berilgan ta‘rif va tushunchalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Jumladan, “Zaxiralar” (BHXS-2) deb nomlangan buxgalteriya hisobining xalqaro standartida Tovar-moddiy zaxiralarga batafsil tushuncha berilgan va uning mohiyati to‘liq ochib berilgan. Mazkur standartning maqsadi tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish tartibini belgilashdan iboratligi ko‘rsatib o‘tiladi².

Zaxiralarni hisobga olishning asosiy masalasi aktiv sifatida tan olinadigan va tegishli tushumlar tan olinmaguncha kelgusi davrlarga o‘tkaziladigan sarflar summasini aniqlashdan iborat bo‘lib, mazkur standart talablariga ko‘ra, tannarxni aniqlash va uni xarajat sifatida keyingi tan olinishi, shu jumladan uni har qanday sof sotish qiymatigacha kamaytirilishi bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Shuningdek, unda sarflarni zaxiralar qiymatiga olib borishda foydalaniladigan tannarxni hisoblash formulalari bo‘yicha muhim uslubiy qoidalar keltirib o‘tilgan. Ushbu standartda tovar-moddiy zaxiraga quyidagi ta‘rif keltirib o‘tilgan: “Zaxiralar: odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo‘ljallangan, sotish uchun ishlab chiqarish jarayonida bo‘lgan; ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida ishlatiladigan xom ashyo yoki materiallar shaklida bo‘lgan aktivlardir”³.

Tovar-moddiy zaxiralar tushunchasiga buxgalteriya hisobining milliy standartlarida quyidagi ta‘rif berilgan: “tovar-moddiy zaxiralar - faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo‘lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma‘muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar”⁴.

¹ “O‘zbekiston - 2030” Strategiyasi (PF-158, 2023 y.11.09). <https://lex.uz/docs/6600413>

² “Zaxiralar” BHXS 2. 1-band. Rasmiy tarjima. 2022 yil.

³ “Zaxiralar” BHXS 2. 2-band. Rasmiy tarjima. 2022 yil.

⁴ “Tovar-moddiy zaxiralar” BHMS 4, 3-band. 4-son BHMS " Tovar-moddiy zaxiralar" (AV tomonidan 30.06.2020 y. 3259-son bilan ro‘yxatga olingan moliya vazirining 28.05.2020 y. 24-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan)

Mazkur BHMSda quyidagilar tovar-moddiy zaxiralar hisobining asosiy qoidalari sifatida keltirib o'tiladi:

tan olish paytini aniqlash, tasniflash, balans qiymatini baholash;

tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni aniqlash, kelgusida xarajatlarni, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini xarajat sifatida tan olish;

tovar-moddiy zaxiralar qiymatini realizasiya qilishning sof qiymatiga qadar kamaytirish (baholash);

tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash hamda moliyaviy hisobotda ular bo'yicha axborotni yoritib berish tartibi.


Rossiya Federasiyasi (nizom) va Amerika Qo'shma Shtatlari (standart) qonunchiligi bo'yicha zaxiralarni hisobga olish tartibi sezilarli darajada farq qiladi: ARB 43 bo'yicha zaxiralarga kiritilgan aktivlarning ayrim turlari AQSh (USGAAP) bo'yicha zaxiralar sifatida tan olinmaydi va zaxiralarni baholashda turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Shuning uchun transformasiya paytida tuzatishlar sonini kamaytirish uchun bu farqlarni oldindan hisobga olinadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish tartibi bo'yicha xorijiy tajribaga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, jahonda iqtisodi rivojlangan AQSh (USGAAP) da tovar-moddiy boyliklarni hisobga olish ARB 43, 4-bo'lim "Buxgalteriya hisobi bo'yicha tadqiqotlar byulleteni zaxiralarni baholash" (Accounting Research Bulletin 43 (Inventory Pricing) bilan tartibga solinadi. Bunda tovar-moddiy zaxiralarni yoki inventarlarni baholashda qo'llaniladigan umumiy tamoyillar bilan tavsiflanadi hamda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish 43-bo'limga kiritilgan o'zgartirishlar (Zaxiralar xarajatlari, ARB 43-ga tuzatish, 4-bob) xarajatlarni shakllantirishning ayrim masalalariga oydinlik kiritadi⁵.

Ushbu ARB 43, "Tovar-moddiy zaxiralar narxini belgilash" tartibi 4-bobidagi yo'riqnomaga ob'ektning ishlamay qolgan xarajatlari, yuk tashish, qayta ishlash xarajatlari va isrof qilingan materiallar (buzilish) ning noan'anaviy miqdorini hisobga olishni aniqlashtirish uchun o'zgartiradi. ARB 43 ning 5-band, 4-bob, ilgari aytilgan "... ba'zi sharoitlarda, ob'ektning bo'sh turishi, haddan tashqari buzilish, ikki marta yuk tashish va qayta ishlash xarajatlari kabi narsalar juda g'ayritabiiy bo'lib, joriy davr to'lovlari sifatida davolashni talab qiladi...".

Ushbu standart qoidasiga asosan, tovar-moddiy zaxiralar "juda g'ayri oddiy" mezoniga javob berishidan qat'i nazar, joriy davr to'lovlari sifatida tan olinishi ko'rsatib beriladi. Bundan tashqari, ushbu standart doimiy ishlab chiqarish xarajatlarini konvertasiya qilish xarajatlariga taqsimlash ishlab chiqarish quvvatlarining normal quvvatiga asoslanishini talab qiladi.

⁵ Statement of Financial Accounting Standards No. 151 FAS151 Status Page FAS151 Summary Inventory Costs an amendment of ARB No. 43, Chapter 4 November 2004 <https://www.xavierpaper.com/documents/usgaap/n.Fas151.pdf>



1-rasm. Xorijiy davlatlarda tovar-moddiy zaxiralar holati.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobi bo'yicha Rossiya Federatsiyasi tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, Rossiyada buxgalteriya hisobida PBU 5/01 "Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish" nomli nizom amal qiladi⁶.

Mazkur Nizomga ko'ra tovar-moddiy zaxiralar sifatida quyidagilarga e'tibor qaratiladi, jumladan:

xom ashyo yoki materiallar sifatida mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadigan;

sotish uchun mo'ljallangan (tayyor mahsulot, etkazib beruvchidan sotib olingan tovarlar);

korxona ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi.

O'zbekiston, AQSh va Rossiya buxgalteriya hisobida tovar-moddiy zaxiralarni tan olish qoidalari bir-biridan farqini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

⁶ ПБУ 5/01 - Учет материально-производственных запасов. (Россия Федерацияси Молия вазирлигининг 06.09.01 йилдаги 44-сон буйруғи) https://nalog-nalog.ru/buhgalterskij_uchet/vedenie_buhgalterskogo_ucheta/pbu_501_zapasov/

1-jadval

Tovar-moddiy zaxiralar tushunchasini mamlakatlar doirasida taqqoslanishi

O'zbekiston	Rossiya	AQSh	MHXS
<i>BHMS 4-son.Tovar-moddiy zaxiralar</i>	<i>PBU 5/01 Tovar-moddiy zaxiralar</i>	<i>ARB 43, "Tovar-moddiy zaxiralar baxolash"</i>	<i>BHXS 2 Zaxiralar</i>
TMZ- faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir;	TMZ-xom ashyo yoki materiallar sifatida mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadigan; sotish uchun mo'ljallangan (tayyor mahsulot, etkazib beruvchidan sotib olingan tovarlar); korxona ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi.	TMZ - "juda g'ayri oddiy" mezoniga javob berishidan qat'i nazar, joriy davr to'lovlari sifatida tan olinishi ko'rsatib beriladi. TMZ- realizasiya qilish maqsadlarida va ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan moddiy aktivlardir	Zaxiralar - odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan; sotish uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan; ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida ishlatiladigan xom ashyo yoki materiallar shaklida bo'lgan aktivlardir

birinchidan, Rossiyaning FSBU 05/2019 Tovar-moddiy zaxiralarda zaxiralar tugallanmagan aktivlarni o'z ichiga olmaydi, aynan shu jihat bizning amaliyotimizda ya'ni "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli 4-son BHMSda ham mavjud, shuningdek AQSh GAAPga ko'ra, ular boshqaruv ehtiyojlari uchun foydalaniladigan aktivlarni o'z ichiga olmaydi.

ikkinchidan, PBU 5/01 da tovar-moddiy zaxiralar qiymati belgilangan chegarada, lekin 20 ming rubldan oshmasligi ko'rsatiladi, bu amaliyot bizda ham eng kam ish haqining 50 barobari miqdorigacha chegara bilan belgilangan. Lekin AQSh GAAPda bunday qoida mavjud emas.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobiga oid tadqiqotlarni Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)ga a'zo davlatlar misolida o'rganadigan bo'lsak, tashkilotning yirik a'zosi Turkiya IFAD GAAP Konvergensiya tadqiqotiga kiritilgan Milliy professional tashkilot veb-sayti: Turkiya Sertifikatlangan buxgalterlar palatalari ittifoqi;

Buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiquvchi: Kamu Gözetimi, Muhasebe

ve Denetim Standartlari Kurumu (KGK);

IFAC a'zolarining standart o'rnatish va tartibga solish bo'yicha so'roviga javobi Jahon bankining Buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha ROSC hisoboti.

1.2-jadval

Xalqaro va milliy doiradagi me'yoriy hujjatlarda tovar-moddiy zaxiralar tushunchasiga berilgan ta'riflar

O'zbekiston	Rossiya	AQSh	MHXS
4-son BHMS Tovar-moddiy zaxiralar	FSBU 05/2019 Tovar-moddiy zaxiralar	ARB 43 "Tovar-moddiy zaxiralar baholash"	2-son BHXS "Zaxiralar"
TMZ - faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadigan; sotish uchun mo'ljallangan (tayyor mahsulot, etkazib beruvchidan sotib olingan tovarlar); korxona ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi.	TMZ-xom ashyo yoki materiallar sifatida mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanadigan; sotish uchun mo'ljallangan (tayyor mahsulot, etkazib beruvchidan sotib olingan tovarlar); korxona ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi.	TMZ - "juda g'ayri oddiy" mezoniga javob berishidan qat'i nazar, joriy davr to'lovlari sifatida tan olinishi ko'rsatib beriladi. TMZ-realizatsiya qilish maqsadlarida va ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan moddiy aktivlardir	Zaxiralar - odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan; sotish uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan; ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida ishlatiladigan xom ashyo yoki materiallar shaklida bo'lgan aktivlardir

Ma'lumki, Turkiyada 2022 yildan boshlab buxgalteriya hisobi tizimi mahalliy va xalqaro shakldagi qator huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi e'lon qilindi, ya'ni:

birinchi, Turkiyada yangi qabul qilingan Tijorat Kodeksiga ko'ra, yurisdiksiyalangan tashkilotlar buxgalteriya hisobi, hisob-kitoblarni va individual yoki konsolidasiyalangan moliyaviy hisobotlarini Turkiya buxgalteriya hisobi standartlari (TBHS) va Turkiya moliyaviy hisobot standartlari (TAS / TFRS) ga muvofiq yuritishi shart qilib belgilandi. Bu erda Turkiya moliyaviy hisobot standartlari (TFRS) esa moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining (MHXS) to'g'ridan-to'g'ri tarjimai hisoblanadi;

ikkinchi, Turkiya Savdo kodeksi;

*uchinchi, qimmatli qogʻozlar bozori qonunlari*⁷.

Turkiyaning buxgalteriya hisobi tizimidan koʻrinib turibdiki, ularda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish tartibi toʻliq moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida amalga oshiriladi, shu jihatdan tovar-moddiy zaxiralar hisobida deyarli oʻziga xos xususiyatlar koʻzga tashlanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. “Oʻzbekiston - 2030” Strategiyasi (PF-158, 2023 y.11.09).
<https://lex.uz/docs/6600413>
2. “Zaxiralar” BHXS 2. 1-band. Rasmiy tarjima. 2022 yil.
3. “Tovar-moddiy zaxiralar” BHMS 4, 3-band. 4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar" (AV tomonidan 30.06.2020 y. 3259-son bilan roʻyxatga olingan moliya vazirining 28.05.2020 y. 24-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan)
4. Statement of Financial Accounting Standards No. 151 FAS151 Status Page FAS151 Summary Inventory Costs an amendment of ARB No. 43, Chapter
<https://www.xavierpaper.com/documents/usgaap/n.Fas151.pdf>
5. ПБУ 5/01 - Учет материально-производственных запасов. (Россия Федерацияси Молия вазирлигининг 06.09.01 йилдаги 44-сон буйруғи)
https://nalog-nalog.ru/buhgalterskij_uchet/vedenie_buhgalterskogo_ucheta/pbu_501_zapaso/
6. Geman, H., & Smith, W. O. “Theory of storage, inventory and volatility in the LME base metals.” *Resources Policy*, 38(2013), 18-28.
7. Williams, J., & Wright, B. “Storage and Commodity Markets.” Cambridge University Press, 1991
8. Ziukov, S. “A literature review on models of inventory management under uncertainty.” *Business Systems & Economics*, ISSN 2029-8234, DOI:10.13165/VSE-15-5-1-03.
9. Al Ruqeishi, I. M. S., & Ullah, A. “Inventory Management: Methods, Approaches, Benefits and Challenges.” *International Journal of Social Sciences and Management Review*, Vol. 7, Issue 4.

⁷ Accounting in Turkey: What You Need to Know? <https://dzen.ru/a/YymopeKUyRDmKIIy>